ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2020: 4.804

SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA TABIAT VA INSON MUNOSABATLARINING BADIIY TALQINI

G. N. Tavaldieva
Toshkent kimyo-texnologiya instituti dotsenti
E-mail: tavaldiyeva_gulbahor@mail.ru

ANNOTATSIYA

Shukur Xolmirzayev XX asr o‘zbek adabiyotining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan taniqli yozuvchidir. U o‘zining yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan betakror nasri bilan o‘zbek xalqi ma'naviyatining yuksalishida o‘ziga xos o‘ringa ega. Sh.Xolmirzayev J.London, E.Xeminguey, S.Tompson kabi jahonning mashhur yozuvchilari qatorida tabiat mavzusida takrorlanmas asarlar yaratdiki, bu yozuvchi ijodining alohida bo‘rtib ko‘rinib turuvchi bir qirrasidir. Maqolada Shukur Xolmirzayevning hikoyachilikdagi badiiy mahorati uning tabiat va inson munosabatlari aks etgan hikoyalari orqali tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: Shukur Xolmirzayev, Boysun, Surxon eli, o‘zbek, tabiat va inson, hikoya, shafqatsizlik, ijodiy prinsip.

ARTISTIC INTERPRETATION OF NATURE AND HUMAN RELATIONS IN SHUKUR KHOLMIRZAEVS STORIES

G. N. Tavaldieva
Associate Professor of Tashkent Chemical Technological Institute
E-mail: tavaldiyeva_gulbahor@mail.ru

ABSTRACT

Shukur Kholmirzaev is a well-known whiter who made a great contribution to the development of Uzbek literature of the twentieth century. He has a special plase in the rise of the spirituality of the Uzbek people with his unique prose, created with nigh artistic skill. Sh.Kholmirzaev with such world's famous writers as J.London, E.Hemingway, S.Tompson, has created unique works on the theme of nature, which is a special aspect of the writer's job. Sh.Kholmirzaev’s artistic skills in story-telling through his stories about nature and human relations have been explared in the article.

Keywords: Shukur Kholmirzaev, Boysun, People of Surkhondary, uzbek, nature and humanity, story, cruelty, creative principle.

KIRISH

O‘zbekiston xalq yozuvchisi, Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofoti sovrindori, "Mehnat shuhrati" ordeni sohibi Shukur Xolmirzayev o‘zining rang-barang va sermazmun ijodi bilan hozirgi o‘zbek adabiyoti taraqqiyotining gullab-yashnashiga, yangi rivojlanish bosqichiga ko‘tarishga samarali hissa qo‘shgan zabardast adibdir. XX asr o‘zbek nasrining 60-70 yillardan keyingi taraqqiyotini bu o‘ziga xos yozuvchi ijodisiz tasavvur qilish qiyin.

Yozuvchi ijodida tasvir prinsiplarining paydo bo‘lishi, shakllanishi, o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lishi avvalo adabiyotga olib kirilgan hayot materialining mazmundorligi, rang-barangligi, takrorlanmasligi bilan bog‘liqdir. Shukur Xolmirzayev «adabiyotga Surxon koloritini - o‘zi tug‘ilib o‘sgan Boysun tog‘larining manzaralarini, surxondaryoliklar hayotini, udumlarini, betakror so‘zlash tarzini - dialektini olib kirdi» [1]. Bu xususiyat ko‘proq yozuvchining milliy - mahalliy koloritga boy bo‘lgan hikoyalarida ko‘zga tashlanadi. Adib ijodining, xususan, hikoyalarining o‘ziga xosligi, betakrorligi ham mana shu sabablardan kelib chiqqan.

Sh.Xolmirzayev hikoyachiligining endigina shakllanib kelayotgan davrida – 60-yillarda ko‘proq asarlar mavzui uchun tabiat va inson masalasi tanlab olingan. Bu bejiz emas, chunki bolaligi aynan tabiat qo‘ynida o‘tgan yozuvchi qalbiga bu mavzu juda yaqin edi. Bu yillarda yaratilgan hikoyalarida adib inson va hayvonot dunyosining, inson va o‘simliklar olamining bir-biriga uzviy bog‘liqligini, ularning‘ ayrim yashay olmasligini, birining ikkinchisiga ta'sirini, tabiatning insonni tarbiyalashdagi ahamiyatini ko‘rsatadi va bu bilan yozuvchi o‘z maqsadiga erishadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Shukur Xolmirzayev ijodi yuzasidan ko‘plab maqolalar va tadqiqotlar, , jumladan, H.Karimovning «Shukur Xolmirzayev ijodiy portreti» risolasi, akademik B.Nazarovning «Shukur Xolmirzayev» nomli ijodiy portreti yaratilgan. Bundan tashqari yozuvchi hikoyalari haqida U.Normatov, S.Mamajonov, Q.Yo‘ldoshev, H.Boltaboev, O.Otaxonov, R.Qo‘chqorovlarning, adibning qissalari to‘g‘risida to‘g‘risida M.Qo‘shjonov, A.Rasulov, M.Olimov; romanlari haqida U.Normatov, O.Tog‘aev, I.G‘afurov, S.Sodiqov va boshqa adabiyotshunos olimlarning maqolalari e'lon qilingan. Biroq bu tadqiqot va maqolalarda Sh. Xolmirzayev ijodining ayrim qirralari yoritilgan edi.

Shukur Xolmirzayevning hikoyachilikdagi mahorati, badiiy so‘z san'ati, tasvir uslubi haqida ilmiy tadqiqot ishlari ham olib borilgan. Jumladan, G.N.Tavaldieva (2001), Sh.Doniyorova (2001) kabi adabiyotshunoslar yozuvchining hikoyachilikdagi

o‘ziga xos tasvir uslubi, voqyelikni badiiy idrok etish tamoyillari haqida ilmiy xulosalar berganlar.

Bundan tashqari, “Shukur Xolmirzayev zamondoshlari xotirasida” (2010) kitobida Shukur Xolmirzayevga zamondosh ko‘plab adabiyotshunoslar tomonidan adib mahoratining, yetuklik darajasining o‘ziga xos tomonlari haqidagi noyob xotiralari jamlangan. Olim Toshboevning “Abadiy zamondosh” (2018) kitobida yozuvchi asarlarining yozilish tarixi, sababi, yozuvchi shaxsiyati haqida fikr yuritiladi.

O‘zbek adabiyotida tabiat va inson mavzui alohida yoritilgan asarlar kam uchraydi, ayniqsa, yozuvchi ijodining salmoqli qismi bu mavzuga bag‘ishlangan jihat Shukur Xolmirzayevgagina xosdir. Shu jihatdan yozuvchi ijodida tabiat va inson tasvirining badiiy tadqiq etilishi uning ijodining o‘ziga xos qirralari haqida ham ilmiy xulosalar berishga imkon beradi.

MUHOKAMA

Shukur Xolmirzayev ijodining ma'lum bir qismini tabiat va inson munosabatlarini badiiy tadqiq etishga bag‘ishladi. Bu munosabatlar haqida adibniig o‘zi iqror tarzida yozgan ushbu so‘zlaridan ham anglash mumkin: «Men Boysun rayonida tug‘ilganman. Boysun - tog‘lik joy. O‘n ikki yoshimda o‘zim yolg‘iz miltiq ko‘tarib ovga chiqib ketardim. So‘ngra, bu yerda yashirishning hojati yo‘q: qaysarroq edim... Lekin bitta narsani yaxshi ko‘rardim: masalaning mohiyatini tushunishni» Bu so‘zlardan anglashiladiki, 70-yillarning boshlarida, ya'ni ijodiy prinsiplari hali to‘la shakllanib ulgurmagan paytda yosh yozuvchi voqyelikni badiiy idrok etish yo‘llarini o‘rgana boshladi. U inson hayotini, yashash tarzini, abadiy tiriklik maibaini tabiat bilan uyg‘unlikda, bog‘liqlikda, birlikda deb biladi. Bu xulosaga u hozirgi Surxon elining olis avlod-ajdodi bo‘lmish qadimgi baqtriyaliklar hayoti tarzini kuzatish asnosida keladi, bu o‘lkaning ko‘hna ibtidoiy xalqlari dastlab tabiatga sig‘inishganini, uni ulug‘ bir ne'mat sifatida qadrlashganini anglaydi.

Yomg‘ir yog‘may qurg‘oqchilik bo‘lgan paytda ko‘kdan yomg‘ir tilab qo‘shiq aytishlar, bahorning birinchi darakchisi bo‘lmish boychechak chiqishi bilan bolalarning uyma-uy yurib xabar berishlari va qariyalarning eson-omon bahorni qarshilaganlari bois ko‘zlariga giyohni surib, tavof qilishlari, Navro‘z quvonchlari o‘sha qadim davrlardan to hozirgacha, ayniqsa, Surxondaryoda saqlanib qolganligi, yozuvchining bolalik xotiralarini ham band etgani sezilib turadi.

Yozuvchi bolaligida eshitgan qadimgi afsonalar mazmunida ham inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikda katta ma'no yashiringanini anglaydi: «Momomning Tiniqoy kampir haqida aytgan ertagining mazmunini keyinchalik chaqishga urinib ko‘rdim...

Shundan keyin mening tabiatga - jonivorlar, parrandalar, hatto yirtqich hayvonlarga ham munosabatim o‘zgarib ketib, ularni o‘zimga qandaydir qarindosh deb biladigan bo‘ldim. Gap shunda ekanki, ibtidoiy odamlar o‘zlarini tabiatdan ajratmagan, balki uning bir bo‘lagi, uzluksiz bir bo‘lagi, deb bilganlar. Shuning uchun ular tabiatdagi har bir giyoh, har bir jonli jonivorda ham til bor, ular ham odamzodga o‘xshaydi, deb o‘ylaganlar. Shuning uchun hayvonlarning odamlarga yordami yoxud odamlarning hayvonlar bilan do‘stligi haqida afsonalar to‘qishgan». Sh.Xolmirzayev «Tiniqoyning «ayiq eri» hasratida aytadigan qo‘shig‘i mazmunida ham insonning tabiatga yaqinligi ifodalanganini ko‘radi.

Sh.Xolmirzayev jahonning mashhur yozuvchilari qatorida, ularga bo‘ylasha oladigan darajada tabiat mavzusida takrorlanmas asarlar yaratdiki, bu yozuvchi ijodining alohida bo‘rtib ko‘rinib turuvchi bir qirrasidir. Mana shu sababdan ham katga imkoniyati tufayli tabiat qonunlari, hayvonlarning yashash tarzlari, har bir giyohning o‘ziga xos xususiyatlari haqida puxta bilimga ega. Bu jihatdan J.London, E.Xeminguey, S.Tompson asarlarining yozuvchi ijodiga ta'siri ham katgadir.

Tanqidchi U.Normatov «Zaminda yashaymiz, zaminni o‘ylaymiz» maqolasida Sh.Xolmirzayev hikoyalariga xos mazkur xususiyat haqida shunday deydi: «Inson va tabiat munosabati Sh.Xolmirzayev hikoyalarining yetakchi leytmotiviga aylanib qoldi. Shunisi xarakterliki, yozuvchining so‘nggi yillarda yaratgan deyarli barcha hikoyalari shu mavzu atrofida aylansa-da, ular bir-birini takrorlamaydi, har gal avtor masalaning yangi qirrasini kashf etadi, yangi xarakter yaratadi, xarakter qalbining yangi tomonini ochadi...». Shu nuqtai nazardan yozuvchining inson va tabiat mavzuidagi hikoyalarini ko‘zdan kechirsak, inson xarakterining qanchalar murakkab ekanligi, bu murakkabliklar, uning hatto, tabiatga munosabatlarida ham namoyon bo‘lishini kuzatamiz.

Chunonchi, **«Kulgan bilan kuldirgan»** (1972) hikoyasida Shukur Xolmirzayev vatan go‘zalligi, boyligi, umuman, tabiatga befarq bo‘lmagan, uni sevuvchi kishilarni tashvishga solayotgan - tabiat boyliklarini asrash masalasini ilgari suradi va bu masalaning mohiyatini oddiy bir voqyea tasviri orqali ko‘rsatadi.

«Kulgan bilan kuldirgan» hikoyasida bosh qahramon tog‘dagi kakliklar haqida qayg‘uradi, bir-ikki qushni emas, umuman, hududdagi barcha qushlarni qahraton ayozdan omon chiqarib olish g‘amini yeydi. «Jarga uchgai odam»da esa o‘zi tabiat va uni asrash xususida film yaratmoqchi bo‘lgan kinorejissyor butun boshli ayiqni o‘ldirib ikki bolasini yetim qilgani uchun tegishli tashkilotlar tomonidan emas, oddiy bir tabiat jonkuyari qo‘lidai ayovsiz jazolanadi.

Yozuvchining bu kabi asarlarida aks etgan o‘zboshimchalik oqibatida yuzlab tog‘ qishloqlari aholisi vohalarga ko‘chirilib, yashnagan go‘shalar vayronaga

aylangani, ming yillik tarixiy obidalarning qarovsiz qolib ketgani, xalq kelajagini ta'min qiladigan yer-suvning isrof bo‘layotgani haqidagi fikrlar va tashvishli mulohazalar ijodkor izhor qilayotgan xalq dardining in'ikosidir. Tabiatga yondashishdagi mazkur prinsipni izohlab, Sh.Xolmirzayev aytadi: «...Gap shunday ekan, gap tabiatni qo‘riqlash, uni boyitib, boyliklarini saqlash va kelgusi avlodlarga yetkazishdek sharafli ekan, bu masalaga hamma bir yoqadan bosh chiqarishi kerak... Ana shunda bebaho tog‘larning jamoli xira tortmaydi, uning go‘zalligi boyligi o‘zi bilan qoladi...».

Sh.Xolmirzayevning inson va tabiat mavzusiga bag‘ishlangan hikoyalarining bir qismida tabiatning maftunkor go‘zalligi aks ettirilsa, boshqalarida tabiatga yovuzlarcha munosabat, uni talon-taroj qilishlar qoralanadi. Mana shu keyingi hikoyalarida yozuvchi tabiat hodisalaridan «sovuq tasvirlar» topadi va muayyai badiiy g‘oyani ifoda qilish maqsadida o‘rinli foydalanadi. Masalan: havoning tundligi, osmonni past tushgan qora bulutlar qoplab olishi, guvillab kuchli shamol esishi, chumchuqlarniig chirqillashi, bo‘rining uvlagani, qor uchqunlarining deraza oynasiga shitirlab urilishi, quyunning qorlarni to‘zg‘itib o‘ynashi, "bo‘ronning qori qalin betlarini yalab -supurib" ketishi odamning kayfiyatiga yomon ta'sir qiladi. Bu tasvirlar hikoyalardagi qahramon xarakterini yoritib beruvchi vositalar, xolos.

Sh.Xolmirzayevning mana shunday ruhda yozilgan hikoyalaridagi tasvirda sovuqqonlik bor, chunki bir suhbatida yozuvchining o‘zi ta'kidlaganidek, manzarada shafqatsizlik bor; «sovuq, shafqatsiz go‘zallik bor. Tog‘larida, so‘qmoqlarida, archalarida... Odamni tarbiya qiladi».

«Muallif tabiatning qaysi hodisasi yoki holatidan material olmasin, u avvalo naturalist sifatida tabiat hodisalarining ob'ektiv mohiyatidan kelib chiqadi va ularni o‘z g‘oyaviy maqsadiga mohirlik bilan yo‘naltiradi. Tabiatnnng har bir hodisasi muallif tafakkurida, tuyg‘ular olamida sayqal topadi va qisman bo‘rtgirilgan, birmuncha izohlaigan tarzda ko‘tarayotgan muammolar koitsepsiyalarni yaqqol ochib beruvchi syujetga aylanadi». Xususan, «Zov ostida adashuv», «Cho‘loq turna», «Yangi zot», «Boychechak ochildi», «Qush tili» va boshqa asarlarni o‘qib shunday xulosaga kelish mumkin.

Sh.Xolmirzayev qahramonlari ona yurtga, tabiatga mehr qo‘ygan yuksak e'tiqodli kishilardir. Lekin uning «Yovvoyi gul», «Boychechak ochildi» hikoyalaridagi asosiy gap tabiatga munosabat haqida emas, balki tabiatning insonga ta'siri, oddiy giyohinng sehrli qudrati orqali ibratli mulohazalarni o‘rtaga tashlaydi.

«Boychechak ochildi» (1971) hikoyasida esa ilm-fan rivojiga katta hissa qo‘shgan adabiyotshunos olim katta shaharda yashab, ona tabiatdan biroz uzoqlashib

qolgani natijasida tabiatga yaqinlashish bilan uning ruhiyatidagi o‘zgarishlar ko‘rsatiladi.

“Sh.Xolmirzayev hikoyalarida tadqiq etilgan inson va tabiatning o‘zaro aloqasi masalasi yozuvchi ijodiy evolyusiyasining deyarli barcha bosqichlarida asosiy o‘rinni egallaydi. Bunday hikoyalarning bir qismida tabiatni asrab- avaylash haqida gap ketsa, boshqa bir guruhida tabiat go‘zalliklarini tasvirlash bilan birga, inson va tabiat munosabatlari go‘zallitini tarannum etuvchi asarlar ko‘proq o‘rinni egallagani ko‘rinadi, chunki yozuvchi insonda tabiatga munosabat orqali yaxshilikni, ezgulikni, katta bir mehrni ko‘rishni istaydi. Bu hol, ayniqsa, inson va hayvonot dunyosi, inson va o‘simliklar olami tasvirida yaqqol ko‘rinadi” [3]. Sh.Xolmirzayevning «Ot egasi», «Podachi» hikoyalarida insonning hayvonga muhabbati «Ko‘kboy» hikoyasida hayvonning insonga sadoqatini ko‘ramiz.

E'tibor qilgan o‘quvchi yozuvchining aksar hikoyalarida ayni mavzuga murojaat etilib, tabiatga aloqador gaplar katta ijtimoiy-axloqiy, ma'naviy-ma'rifiy muammolar, inson va uning taqdiri, tarbiyasi haqidagi falsafiy fikrlar bilan tutashib ketganligini ko‘radi. Inson tabiatdan tirqishsiz devor orqali ajralib turmaydi, barcha borliq, mavjudot biri ikkinchisidan oladi yoki beradi. Ushbu prinsip nafaqat inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatda amal qilinadi, balki bu tuyg‘u inson va hayvonot dunyosida, ularning o‘zaro munosabatida ham ko‘rinadi. Bunday uzviy bog‘liqlikni aks etgirgan hikoyalarda bir dunyo bilan ikkinchi dunyoni, bir olam bilan ikkinchi olamni vafo, sadoqat, mehr-muhabbat tushunchalari bog‘lab turadi.

Hayvonot dunyosi haqida jahon xalqlari adabiyotida yaratilgan Redyard Kipling, Jek London, Seton-Tompson, Orosio Kiroga, Lev Brandt, Yuriy Kazakovlarning turli ma'naviy va ijtimoiy muammolarni o‘rtaga tashlagan ko‘pgina asarlari o‘quvchilarga ma'lum va manzur. Ana shunday muammo, ma'no Sh.Xolmirzayevning inson va hayvonlar munosabatiga bag‘ishlangan hikoyalarida ham o‘ziga xos tarzda yozuvchi tug‘ilib o‘sgan Boysun tabiati va kishilari xarakteridan kelib chiqib badiiy talqin qilingan.

Shukur Xolmirzayevning tabiat va inson munosabatlariga bag‘ishlangan hikoyalari o‘zining rang-barang badiiy talqiniga ega ekanligini kuzatish mumkin. Bu jihat yozuvchining nafaqat hikoyalarida, balki uning qariyb barcha asarlarida - qissa, esse, romanlarida ham ko‘zga tashlanadi, ularda doim tabiatga murojaat etiladi, o‘quvchiga tabiatning yangi-yangi sir-asrorlari oshkor qilinadi. Chunki tug‘ilgan yurtidan uzoqda yashasa-da, tabiat, uning go‘zalliklari hamma-hammasi yozuvchining qon-qoniga, ongiga singib qolgap. U o‘zi tug‘ilib o‘sgan Boysundan, hatto, ruhan ham ajralib yashay olmaydi. Adabiyotshunos Y.Solijonov tabiat tasvirida yozuvchining detallarga alohida ahamiyat berishi haqida quyidagicha ifodalaydi: “Shukur

Xolmirzaevning asarlarida eng ko‘p qo‘llaniladigan detallar bu — tabiat unsurlari: turli daraxtlar, o‘t-o‘lanlar, gullar, qushlar, hashoratlar va hayvonlardir. Ularni inson obraziga nisbat berish bilan adib tabiat va odamning yaqinligini, biri ikkinchisisiz yashay olmasligini uqdirmoqchi bo‘ladi. Ayni chog‘da tabiat hodisalaridagi o‘zgarishlarga, ularning o‘ziga xosligi (masalan, yarmi qurigan do‘lananing hamon gullab, meva tugishi, gap tomirning chuqur ketganligi, ya'ni mohiyatda ekani)ga urg‘u berish orqali odamni o‘z hayotiga e'tiborliroq bo‘lishga undaydi. Ha, Shukurning asarlarida tabiat gapiradi, harakat qiladi, ko‘rkini namoyish etish uchun quturib gullab, bizni maftun etadi. Ruhiyatimizga osoyishtalik bag‘ishlab, umrimizni uzaytiradi” [4].

Sh.Xolmirzayev hikoyalarida tabiat o‘quvchiga estetik zavq, lirik kayfiyat bag‘ishlovchi vosita, siqilgan yurakka taskin beruvchi maskan sifatida talqin qilinadi. Qator hikoyalaridagi Islom, Ehson, Qo‘ng‘irot domla obrazlari orqali yozuvchining o‘zi ona tabiatning maftuni, himoyachisi, kurashchisi kabi ish tutadi. Uning asarlarida osmon baravar tog‘lar, jiyaklarida boychechaklar o‘sib yotgan so‘qmoq.lar, shishadek tiniq osmon, oppoq momiq bulutlar, shoxlari osmonga tekkudek azim daraxtlar, sokin o‘rmonlar, kakliklarning sayrashi kishining bahri-dilini ochadi; tandir og‘ziday alangalanib turgan quyosh, yam-yashil yaproqlari tagidan no‘xatdek-no‘xatdek zangor mevalari ko‘rinib turgan archa ko‘ngillarga shodlik baxsh etadi; cho‘l havosi, uning kengligi, sarg‘ish tuman ichra suzayotgan oy, bo‘g‘iq ovoz chiqarib, afsonaviy bir maxluqdek kilkillab oqayotgan daryo asabni xotirjam qiladi. Bu manzaralar qandaydir tashqi kuzatuv asosidagi tasvir emas. Bu yeru osmondagi barcha go‘zalliklar ham birdaniga, bir vaqtda yozuvchi ko‘z o‘ngida gavdalanmaydi, bu eshitish va ko‘rish orqali qabul qilinadigan tabiat manzarasi emas, balki bu murakkab va aniq qonunlarga asoslangan tabiat hayotining umumiy manzarasi. Tabiatni har tomonlama, ikir-chikirlarigacha, chuqur bilimdonlik bilan tasvirlash yozuvchi ijodiy prinsipining asosiy xususiyatlaridan biridir. Sh.Xolmirzayev asarlarida tog‘, cho‘l, qishloq tabiati tasvirlari ko‘p uchrasa-da, ammo bu tasvirlar hych qachon bir-birini takrorlamaydi, manzaradagi rang-baranglik tasvirda o‘ziga xoslikni ta'minlagan.

NATIJALAR

Shukur Xolmirzayev ijodi – o‘zbek hikoyachiligida katta maktab hisoblanadi.

Tabiat va inson muammolarini yoritgan asarlarida Shukur Xolmirzayev o‘z yurti tabiatini ko‘z-ko‘z qiladi, ana shu yurt tabiatiga mehr qo‘ygan, uni asrab avaylagan shaydoyi kishilarni o‘ziga yaqin oladi va ulug‘laydi; o‘z ne'matlarini tuhfa etgan tabiat boyliklaridan nooqil foydalanib, shafqatsizlarcha munosabatda bo‘lgan kishilar fojiasini fosh etadi. Tabiat va inson munosabatlarini ko‘rsatish orqali yozuvchi quyidagi hayotiy hikmatlarni kashf etadi:

- tabiatning barcha betakror go‘zal manzaralari insonga estetik zavq, kuch-qudrat baxsh etadi;

- tabiatga yaqinlashish inson qalbida mehr-shafqat, g‘ayrat-shijoat, yashash va ishlashga havas uyg‘otadi, ijodiy ilhom, aql-zakovat bag‘ishlaydi;

- inson tabiatdan ma'naviy ozuqa oladi; tabiatdan uzoqlashish esa insonni tabiiy tuyg‘ularidan mahrum qiladi, uni beshafgqat va toshbag‘irga aylantiradi.

Ko‘rinadiki, Sh.Xolmirzayev hikoyalarida tabiatga «o‘lja» sifatida qarovchilar, turli hodisalar girdobida o‘zlari ona tabiatning «o‘lja»siga aylanadi, undan manfaat kutib, uning tabiiyligiga xiyonat qilgan qahramonlarning o‘zlari ham mana shu xiyonatning qurboni bo‘ladilar. Sh.Xolmirzayev hikoyalarida tabiat o‘z holicha alohida bir dunyo. Unga inson aralashuvi bilan bu dunyo boyishi yoki aksincha ayrim jihatlari yemirilishi mumkin. Insonning insonligi ham tabiatni bir butun holida saqlay olishida ko‘rinadi.

Adib hikoyalarida tabiat tasviri muayyan estetik vazifani bajaradi. U faqatgina tabiat dunyosining bir bo‘lagi emas, balki qahramon dunyoqarashining va insoniy go‘zalligining shakllanishida o‘z ta'sirini ko‘rsatuvchi poetik vosita hamdir. Inson va tabiat muammosi Sh.Xolmirzayevning ayrim hikoyalari mavzusiga tegishli mavsumiy hodisa emas. Bu munosabatlar tizimida yozuvchi Inson va tabiatning o‘z vazifasi, asardagi o‘rni va jamiyatdagi mantig‘ini tushuntirib berishga erishgan.

XULOSA

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, Shukur Xolmirzaev ijodining dastlabki bosqichida o‘zi aytganiday klassiklarga ergashgan va bunda ularning ta'siri katta bo‘lgan. Shu bilan birga Sh.Xolmirzaev J.London, R.Tagor, A.Chexov yoki A.Qahhorlarning quruq o‘zlashtiruvchisn emas, balki badiiy so‘z san'atini milliy zaminda boyitishga harakat qildi. Shukur Xolmirzaev shaklan an'anaviy yo‘lda mazmunan yangi qahramonlar yaratdi.

Sh.Xolmirzaev asarlarini o‘qib, so‘ng yozuvchi voyaga yetgan Surxon vohasiga, Boysun tog‘lariga, bepoyon dashtlariga qadami tushgan kishi undagi manzara, rang-baranglikni ko‘radi, ajib ohanglarni eshitadi, ularning hammasi ana shu yuragida hayot, tiriklik «tepib turgan» tabiatning «issiq» bag‘ridan olinganini baralla sezadi.

Shukur Xolmirzaevning o‘zi hayotni teran anglagan, insoniyat ruhiyatidagi o‘zgarishni seza oladigan inson edi. Shuning uchun ham u asarlarida tabiat qonuniyatlari asosida ish ko‘radi, bu tabiiylik hyech qachon buzilmasligi kerakligi, buzilgan taqdirda katta falokatlar, fojialar keltirib chiqarishi mumkinligi haqidagi xulosalar chiqaradi.

Shukur Xolmirzaev adabiyotga Surxon koloritini, tabiati, havosini olib kirgan yozuvchi. Olib kirganda ham betakror uslubda zavq bilan ifodalay oldi. Ana shundan, u o‘zbek hikoyanavisligida o‘ziga xos mustahkam cho‘qqi yaratdi. Ayniqsa, “Zov ostida adashuv” hikoyasini nafis so‘z ila yaratilgan san'at asari deyish to‘g‘ri bo‘ladi. Bundan tashqari, “Omon ovchining o‘limi”, “Bandi burgut”, “Ot o‘g‘risi” singari hikoyalari orqali Shukur Xolmirzaev o‘zbek hikoyachiligida o‘ziga xos maktab barpo etdi.

REFERENCES

1. Normatov U. (1982). Problems of style, artistic form. Maturity 356.
2. Kholmirzaev Sh. (2003). Stories. Volume 1 3. Tavaldieva G. (2001).
3. Tavaldieva G. Shukur Kholmirzaev's creative way. 49
4. Solijonov Y. (2007). When the details come to mind. https://ziyouz.uz/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/2007-sp-71133409/